

TO'LOV KARTASI EGALARI UCHUN XAVFSIZLIK BO'YICHA TAVSIYALAR

- To'lov kartasini boshqa shaxslarga ko'rinmas joyda saqlang. Kartani sotuvchidan (kassir) tashqari boshqa shaxsga ko'rsatmang, shuningdek, kartani ko'zdan qochirmang. Kartani hujjatlar va naqd puldan ayniqsa safarlarda alohida saqlashni tavsiya qilamiz;
- To'lov kartangizdan foydalanganizda firibgarlikning oldini olish uchun u bilan faqat sizning huzuringizda operatsiyalarni amalga oshirishni talab qiling, kartani ko'zdan qochirmang;
- Agar sizga telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa yo'llar bilan murojaat qilib va turli xil bahonalar ostida, to'lov kartangiz haqidagi ma'lumotlarni parolni yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlarni bilishga harakat qilishgan bulsa **EHTIYOT BO'LING: bu firibgarlikning aniq belgilari**. Muloqot davrida Sizda biror bir shubha paydo bulgan bulsa, darhol muloqotni to'xtatib, bankning 1245 qisqa raqami yoki Kontakt-markazning (871) 207 32 42 telefon raqamiga murojaat qilishni tavsiya qilamiz;
- Uchinchi shaxslarning maslahatiga quloq solmang xamda operatsiyalarni amalga oshirishda ularning yordamini qabul qilmang. Agar kerak bo'lsa, bank xodimlariga yoki bankning 1245 qisqa raqami yoki Kontakt-markazning (871) 207 32 42 telefon raqamiga murojaat qiling;
- Kartangizni boshqa shaxs tomonidan ishlatilinishini oldini olish uchun PIN-kodni bank yoki huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, savdo nuqtalarining kassirlariga oshkor qilmang xamda kartaga PIN-kodni yozib qoymang;
- Agar siz PIN-kodni unutib va qayta tiklashni istasangiz, oson taxmin qilish mumkin bo'lgan raqamli kombinatsiyalar o'rnatmang, masalan telefon raqamingizning oxirgi raqamlari, tug'ilgan kuningiz sanasi va hokazo;

Bank barcha kerakli ma'lumotlarga ega va hech qachon, hech qanday holatda telefon orqali qo'ng'iroq qilib to'lov kartasining PIN kodi, avtorizatsiya ma'lumotlari, rekvizitlarini o'tkazish talabi bilan murojaat qilmaydi, xamda elektron pochta orqali dastur va u bilan bogliq yangiliklarni elektron pochtaga tarqatmaydi.

To'lov karta ma'lumotlari buzilgan yoki ruxsat etilmagan tranzaksiyalar bulgan taqdirda, darhol bankning 1245 qisqa raqami yoki Kontakt-markazning (871) 207 32 42 telefon raqamiga murojaat qiling.

O'Z-O'ZIGA XIZMAT KO'RSATISH QURILMALARI BILAN ISHLASHDA XAVFSIZLIK BO'YICHA TAVSIYALAR

- O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmasida (keying matnlarda Bankomat) to'lov kartasini mahfiy ma'lumotlarini o'qidigan moslama (keyingi matnlarda-skimmer) o'rnatilmaganligiga ishonch hosil qiling, firibgarlar kartadan ma'lumotni o'qish uchun ularni karta qabul qiluvchi uskunaga yopishtiradilar;
- Bankomatning klaviaturasida skimmer yopishtirilmaganiga ishonch hosil qiling;
- Bankomatlar yoki terminallardan foydalanganda, PIN kodni biron biri ko'rishga imkoniyati yo'qligiga ishonch hosil qiling, klaviaturani qo'l bilan yoping;
- Agar siz bankomatdan foydalanganizda hatoliklar borligini sezsangiz, boshqa bankomatlarda naqd pul olishni tavsiya qilamiz;
- Chiqib turgan simlar yoki karta qabul qiladigan moslamani atrofidagi materiali bilan rangi to'g'ri kelmasa bilinki shubhalar uchun etarli sabablar mavjud. Siz xato qilishingiz mumkin, lekin xavf-xatarga uzingizni qo'ymang;
- Bankomat atrofida oyna yoki boshqa shubhali narsalar yoqligiga ishonch hosil qiling. Bankomat o'rnatilgan joyda hech qanday begona narsalar bo'lmasligi kerak;
- Video nazorati ostida bulgan bankomatlarni qidiring. Odatda, video kuzatuv zonasida joylashtirilgan qurilmalar skimmerlarni o'rnatish imkoniyatidan yaxshi himoyalangan;
- Shubhali joylarda joylashgan bankomatlardan ehtiyot bo'ling. Skimmerlarni olomon ko'chalardan uzoqda joylashgan qurilmalarda o'rnatish oson;
- Bankomatni tegishdan qo'rqmang. Agar bankomat g'ayritabiiy ko'rinadigan bo'lsa, unda skimmer o'rnatilmaganligini tekshirib ko'ring. Firibgarlar josuslik uskunalarini olib tashlashga qodir bo'lsa, siz xam bunga qodirsiz;
- Boshqalar yordami bilan operatsiyalarni amalga oshirmang. Firibgarlar texnik, bank xodimlari yoki oddiy mijoz deb o'zini tanishtirishi mumkin. Agar rasmiy forma kiygan kishi sizga qurilma ta'mirlanmoqda, tozalanmoqda desa va uning yordamida naqd pul echishni taklif qilgan bulsa, bunday yordamni darhol rad eting.

Bank barcha kerakli ma'lumotlarga ega va hech qachon, hech qanday holatda telefon orqali qo'ng'iroq qilib to'lov kartasining PIN kodi, avtorizatsiya ma'lumotlari, rekvizitlarini o'tkazish talabi bilan murojaat qilmaydi, xamda elektron pochta orqali dastur va u bilan bogliq yangiliklarni elektron pochtaga tarqatmaydi.

To'lov karta ma'lumotlari buzilgan yoki ruxsat etilmagan tranzaksiyalar bulgan taqdirda, darhol bankning 1245 qisqa raqami yoki Kontakt-markazning (871) 207 32 42 telefon raqamiga murojaat qiling.